

JESSI STYUART IJODIDA MAKONGA MANSUBLIK HISSI YORITILISHI

O.X.Ganiyeva

F.f.f.d., dotsent

Buxoro davlat universiteti

E-mail: o.x.ganieva@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14355626>

Annotasiya: Mazkur maqolada XX asr AQSH regional romannavisi Jessi Styuartning “Daughter of the Legend” romanida qahramonlarning makonga mansubligi badiiy tasviri nazariyotchilar fikrlari misolida tahlilga tortiladi.

Kalit soʻzlar: J. Styuart, “Daughter of the Legend”, roman, makonga mansublik, epik bayon, nasr, xarakter, obraz, rivoya, AQSH adabiyoti, muallif, romannavis.

XX asr AQSH realistik romanchiligi mislsiz evrilishlarni boshdan kechirib, J. Styuartning mazkur janr rivojida hissasini alohida taʼkidlash lozim. “Trees of Heaven”, “Taps for Private Tussie”, “Daughter of the Legend”, “Foretaste of Glory”, “Mr. Gallion’s School”, “Mongrel Mettle” singari oʻnlab romanlari adibning hayotligidayoq XX asr birinchi yarmida yuqori tanqidiy eʼtirofga sazovor boʻlgan yozuvchilardan biri sifatida tanilishiga turtki boʻldi [4]. Muallif ijod mahsullarida real qiyofalarni chizib, har birining badiiy hayotida xavfli hamda tizginsiz kurashlar kechadigan taqdirga roʻpara qildi. Qahramonlarning koʻrgan-kechirganlari, kurashlari dialektik mohiyat kasb etib, garchi ijtimoiy jihatdan teskari pozisiyada boʻlishlariga qaramasdan yakunda yengilganliklarini anglab yetadilar. J. Styuartning har bir personaji insonlik shaʼnini pok saqlashga, yashash falsafida xato qilmaslikka, hayotiy prinsiplarida sobit turishga intilib, qatʼiyatli, mard va jasur xarakterga ega insonlar jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashadilar.

S. L. Bevard J. Styuart romanlarida xarakter, konflikt va badiiy ifoda individualligini tadqiq qilib, muallifning har qanday vaziyatda umid bilan yashaydigan qahramonlar yaratganini, ulardagi yoshlik, sergʻayratlik va hayotga muhabbat fazilatlarini tahsinga loyiq ekanini taʼkidlaydi [1]. J. H. Sparlokning “A Sociocultural and Rhetorical Analysis of Jesse Stuart’s Fiction” mavzusidagi dissertasiyasida yozuvchining asarlari hikoyanavislik va romannavislik rakurslaridan tahlilga tortilib, kichik nasriy namunalarida sodda va begʻubor roviyning namoyon boʻlishi, muloyim kulgi orqali rivoyasiga lingvo-estetik badiiyat beradigan kinoyali muallif va hikoyada ramziy transformasiyalarning ahamiyati ochib beriladi. Dissertant J. Styuartning hikoyalari bilan bir qatorda “Daughter of the Legend”, “Taps for Private Tussie”, “Beyond Dark Hills” va “Mongrel Mettle” romanlarini ham ijtimoiy-madaniy, ritorik jihatdan oʻrganib, ijtimoiy muammolarni tasvirlashda adib mahoratini asoslab beradi [3; 183]. “Beyond Dark Hills”, “Mongrel Mettle”, “Daughter of the Legend” hamda “Taps for Private Tussie” romanlari fenomenologik va etnometodologik tahlil qilinib, asarlardagi qahramonlar, ilgari surilgan ekzistensial gʻoyalar, hayot mazmunini anglash, roviy olamining oʻziga xosliklari romanchilik nazariyalariga asoslanib individualliklari ochib beriladi.

1965-yilda chop etilgan “Daughter of the Legend” romani XX asrda juda dolzarb hisoblangan irqlararo tolerantlik mavzusiga bagʻishlanib, J. Styuart jamiyatdagi irqiy kamsitilish, bir mamlakatda yashab diskriminatsiyaga uchragan aholi dardu-anduhlarini yorqin aks ettiradi. Garchi J. Styuartning barcha ijod namunalarida boʻlganidek makon sifatida Appalachia togʻlari tanlansa ham, avvalgi romanlaridan farqli oʻlaroq, bu romanda makonni

o'zining tug'ilgan joyi — Kentukki shtatidagi Grinap okrugidagi tog'lardan Tennessi shtatidagi balandliklarga ko'chiradi. Appalachia tog'lari eng katta tog' tizmalaridan biri bo'lib, butun mamlakat bo'ylab yastanib yotadi, romanda Tennessi shtatida joylashgan qismi tanlanib, tog'li xalqga xos e'tiqod, an'ana va qadriyatlar, nabotot va hayvonot olami keng yoritiladi. Yozuvchi faqat mamlakatning shu qismida hukmron irqiy kamsitilish mavzusini badiiy voqelantirar ekan, bu nafaqat AQSH uchun, balki butun dunyo uchun og'riqli mavzulardan biri ekanini ochib beradi.

J. Styuart romanlarini tadqiq qilib, sotsiologik olimlar nazariyasiga tayanib, o'z mulohazalarini bayon qilgan J. H. Sparlok jamiyatni shaxsdan, shaxsni jamiyatdan ayro tasavvur etib bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi [3; 183]. S. Reznichenko ham interdistsiplinar tadqiqotlarida makon hissini asosan uch jihatga qaratilganligini ta'kidlab, *sotsiomadaniy* (masalan, jamiyatga bo'lgan bog'liqlik, ijtimoiy kapitalning joyga bo'lgan bog'lanishni shakllantirishga qo'shgan hissasi); *biofizik* (joyga bo'lgan bog'liqlikka tabiiy, hududiy, iqlimiy omillar va muhitning moddiy-xususiy jihatlarining ta'siri); *sotsiomadaniy va biofizik jihatlarining integratsiyasi* (joyga bo'lgan bog'lanishni o'rganishda ushbu ikki jihatni birlashtirish) aspektlarini alohida qayd etadi [2; 19]. Adabiyotshunos hamda sotsiologni fikrlariga tayanib aytish mumkinki, J. Styuart ham "Daughter of the Legend" romanida qahramonlarning makonlariga nisbatan ijobiy va salbiy hisslarning aralashuvidan aziyat chekishadi. Birgina Deyvning shu negativ illatga qarshi kurashda yengilishi orqali muallif bu yolg'iz kurash emasligini, bu butun bir insoniyatning muammosi ekani, faqat o'z oshyonida halovat his qilgan kimsagina haqiqiy baxt hissini tuyishi mumkinligini mohirona va mukammal badiiy voqelantiradi.

Xulosa qilib aytganda, J. Styuart "Daughter of the Legend" romanida qahramonlarning makonga mansublik hissi orqali davr ruhiyatini, muammolarini, irqiy kamsitilish, shaxs hamda shaxsiyat masalalarini tahlil qilib, turli poetik yondashuvlar, bilvosita muallif, ishonchli roviy hamda personajlar mushtarakligida o'z konseptual maqsadiga erisha oldi.

References:

1. Bevard. Samuel Lee. Character, Conflict, and Statement in Three Jesse Stuart novels: The Movement toward Hope and Salvation. // A Thesis presented to the Faculty of the Graduate School Morehead State University, 1976. // P. 121.
2. Reznichenko, S. Place Attachment and Sense of Place: Models and Phenomena. // Social psychology and society, № 3, 2014. // P. 15-27.
3. Spurlock, J. H. A Sociocultural and Rhetorical Analysis of Jesse Stuart's Fiction. // A Dissertation Submitted to the Faculty of the Graduate School of the University of Louisville, 1985. // P. 201.
4. https://books.google.co.uz/books?id=6wVSbw3FbXUC&q=Jesse+Stuart+foretaste&redir_esc=y#v=snippet&q=Jesse%20Stuart%20foretaste&f=false